

OG'IR NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING KOMPLEKS REABILITATSIYA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ahmadova Farog'at Jamoliddin qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Defektologiya [logopediya] yo'nalishi 402-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning kompleks rehabilitatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Og'ir nutq nuqsoni, alaliya, motor alaliya, sensor alaliya, dizartriya, rinolaliya, afaziya, duduqlanish, ekspressiv nutq, impressiv nutq, yaqin rivojlanish zonasi.*

Abstract: *In this article, the main directions of complex rehabilitation of children with severe speech impairment.*

Key words: *Severe speech impairment, alalia, motor alalia, sensory alalia, dysarthria, rhinolalia, aphasia, stuttering, expressive speech, impressionistic speech, zone of proximal development.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены основные направления комплексной реабилитации детей с тяжелыми нарушениями речи.*

Ключевые слова: *Тяжелые нарушения речи, алалия, моторная алалия, сенсорная алалия, дизартрия, ринология, афазия, заикание, экспрессивная речь, импрессионистическая речь, зона ближайшего развития.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishilishi bilanoq, hukumatimiz tomonidan o'sib ulg'ayayotgan bolajonlarimizning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga, uni amalga oshirishda asosiy omillardan sanaluvchi til o'qitish masalalariga kuchli e'tibor qaratish dolzarb muammolardan biridir. Bunday diqqat e'tibor ona tilini o'rganish va o'qitish o'zligimizni anglash, uning ertangi kunimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni munosib tarzda tarbiyalab, voyaga etkazishning muhim vositasi ekanligini chuqur tushunish bilan asoslanadi. Ma'lumki, til vositasida inson muloqotga kirishadi – fikr almashadi, axborot oladi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Jamiyatda tilni o'zlashtirish jarayoni kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati (kommunikasiyasi) sharoitida amalga oshadi. Nutqi o'z yoshiga nisbatan qo'yilgan talablar darajasida rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez va yengil muloqotga kirishadi, o'z istak va fikrini tushunarli qilib ifoda eta oladi, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar toifalari yetarlicha xilma -xil bo'lib, unga alaliya, dizartriya, afaziya, rinolaliya va yaqqol namoyon bo'luvchi duduqlanish kiradi. Ularning umumiy o'ziga xos xususiyatlari - nutqning turg'un tizimli buzilishi hisoblanib, odatda ular nevrologik va psixologik simptomlar, turli xil ruhiy faoliyatlarning orqada qolishi bilan qo'shilib keladi. Davolovchi – pedagogik ish va logopedik korreksiya bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, nutqiy nuqsonning tuzilishi va namoyon bo'lishi darajasini hisobga olgan holda, differensial holda tashkil etiladi.

Kommunikativ hatti -harakatlar yaxlit jarayon sifatida rivojlanishida turli xil nutqsonlarga ega bo'lgan bolalarda buzilgan bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar kabi, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ham hayotining birinchi yillaridan boshlaboq kommunikativ hatti -harakatlarni rivojlantirish bo'yicha maxsus korreksion ishlar olib borilishiga muhtoj bo'lishadi. Nutqning rivojlanishi- bu ona tili grammatik qonuniyatlari asosida turli xil muloqot vositalarining egallashdir.

Nutqning rivojlanishi va kommunikativ hatti -harakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar juda murakkab va tushunarsiz. Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda kommunikativ hulq - atvor yetarlicha saqlangan yoki aksincha, duduqlanuvchi , tovushlar talaffuzida qo'pol nuqsonga ega bo'lgan bolalar deyarli atrofdagilar bilan muloqot qilmasliklari mumkin.

Motor alaliyali bolalarni tekshirishda nutqiy rivojlanmaganlikning qator o'ziga xususiyatlarini hisobga olish zarur. Eng birinchi navbatdagi yaqqol qiyinchilik so'zlarning tovushli obarzini shakllanishida namoyon bo'ladi: bunda bola passiv lug'atga ega bo'lishiga qaramasdan, bola so'zni talaffuz qila olmaydi, bunda yaqqol artikulyatsion motorikadagi buzilishlar namoyon bo'lmasada, nutqiy praksis qiyinchilik bilan shakllanadi. Motor alaliyada so'zning bo'g'in tuzilishini shakllanishidagi qiyinchiliklar hatto yaxshi tanish va sodda bo'g'inli so'zlarni faollashtirish, kattalar ketidan so'zlarni takrorlashda ham namoyon bo'ladi

Tovush va bo'g'inlarning tushirib qoldirilishi, ularning noturg'un va xilma xil o'rin almashishlari, soddalashuvi hisobiga so'zlarning bo'g'in tuzilishining buzilishi xarakterli xususiyatdir. Nutqiy muloqotda so'zlarni faollashtirishdagi qiyinchiliklar hisobiga tez -tez to'htamlar va tutilishlar kuzatiladi. Motor alalik bolalar nutqiy faolligining haddan tashqari pastligi bilan ajralib turadi. Kattalarni bolalar bilan muloqot qilishga urinishlarida ko'pincha negativizmlar namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda motor alaliyani vaqtinchalik qaytar holat hisoblanadigan , nutqiy rivojlanishning sustlashuvidan farqlash lozim, bu toifa bolalarda ona tilining grammatik meyorlarini o'zlashtirish imkoniyatining muhim tashxislash meyorini hisoblanadigan, motor alaliyada ular turg'un buziladigan bo'ladi. Bolalar gapni, uning qismlarini grammatik jihatdan to'g'ri tuzishda katta qiyinchiliklarga uchraydi. Nutqiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda motor alalik bolalarga xos va ularda tug'un bo'lgan so'zning bo'g'in tuzilishining buzilishi va agrammtizmlar kuzatilmaydi.

Nutqning shakllanganlik darajasini tekshirishda nutqning impressiv va ekspressiv tomonlarini tekshirish uchun maxsus metodiklar qo'llaniladi. Bolalarda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar tekshirilayotganda funksional va mexanik dislaliya va dizartriya farqlanadi. Mexanik dislaliyada tovushlar talaffuzidagi buzilishlar artikulyatsiya a'zolaridagi anotomik nuqsonlar oqibatida kelib chiqadi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda turg'un tizimli nutq buzilishlari ko'pincha bu toifa bolalarni ommaviy maktabda o'qishga tayyor emasligini ko'rsatadi. Maktab ta'limiga tayyorgarlikni shakllantirish bolaning ruhiy - asab faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida organizmning, eng avvalo, markaziy asab tizimining yetilishiga bog'liq bo'ladi

Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning ko'pchiligida nevrologik tekshirishda yaqqol ko'zga tashlanmaydigan harakat buzilishlari aniqlanadi: muskullar tonusining o'zgarishi, yengil gimi va monoparezlar, muvozanatni va harakatlar koordinatsiyasining buzilishi, ko'l barmoqlari muskullari harakatlairining buzilishi, umumiy va oral praksisning shakllanmaganligi. Ba'zi og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga bilish faoliyatlarining buzilishi xos bo'lib, ular nutqiy nuqsonning o'ziga, shuningdek, aqliy qobiliyatning pastligiga ham bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar hissiy - emotsional sohasining yetilmaganligi, hissiy bo'shligi, affektiv qo'zg'aluvchanlikning yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bosh miya qobig'idagi da lateralizatsiya faoliyatining to'laqonli emasligi bilan qo'shilib keladigan nutq zonolari va assotsiotiv zonalarining rivojlanishining sustlashganligini aniqlanishi mumkin. Asosiy e'tiborni miyaning chap bosh yarim sharining nutq zonasida EEGda turg'un nutqning to'liq rivojlanmaganligi yoki sensor alaliyada epiletiformali faollikning mavjudligiga qaratish kerak. Topshiriqlarini bajarishda diqqatini to'play olmaslik; o'yin qoidalariga qiynchilik bina bo'ysunadi, ammo negativizmlar kuzatilmaydi; o'yinda "sekin gapira" olmaydi; ko'pincha boshqalarni gapini bo'ladi yoki boshqa bolalarning o'yinlarini buzadi. Meyoriy lateriallashuvdan chetga chiqish ko'pincha nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar va ta'lim olishda qiynaladigan bolalarda kuzatiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni tekshirishda sog'lom tengdoshlariga qaraganda bu toifa bolalarda chap qo'l(chapaqay) bolalar ulushi ko'pligi aniqlangan. Bu toifa bolalarning elektroensefalogramma (EEG) natijalari sog'lom tengdoshlar tubdan farq qiladi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bosh miya qobig'idagi da lateralizatsiya faoliyatining to'laqonli emasligi bilan qo'shilib keladigan nutq zonolari va assotsiotiv zonalarining rivojlanishining sustlashganligini aniqlanishi mumkin. Asosiy e'tiborni miyaning chap bosh yarim sharining nutq zonasida EEGda turg'un nutqning to'liq rivojlanmaganligi yoki sensor alaliyada epiletiformali faollikning mavjudligiga qaratish kerak. Elektroensefalografik tekshirish shuningdek, intellektual yetishmovchiligidan alohida shakli nutq nuqsoni va autik hulq-atvor bilan qo'shilib keladigan- X- xromosomalarning sinish sindromini aniqlash imkonini beradi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan davolovchi- pedagogik ishlar differensila tarzda, bosqichma- bosqich nutqiy nuqson tuzilishi va uni namoyon bo'lishi darajasiga bog'liq ravishda tashkil etiladi. Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning katta guruhini nutqni to'liq rivojlanmagan(NTR) maktabgacha yoshdagi bolalar tashkil etadi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi osti meyoriy eshitish va intellektlarda bolalarda nutq tizimining barcha komponentlarini:fonetik, fonematik va grammatik tomonlarini shakllanishini buzilishi tushuniladi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi bolalar nutqniy patologiyasining ancha murakkab shakllarida kuzatilishi mumkin:alaliya, afaziya,rinolaliya, dizartriya, bunda bir vaqtda lug'atning , nutqning grammatik qurilishi va fonetik - fonematik rivojlanishning buzilishi aniqlanadi.

NTR bolalar uchun quyidagilar xos: nutqning kech rivojlanishi; nutqiy faollikning pastligi; kundalik og'zaki nutqni tushunish saqlangan holda ekspressiv nutqning orqada qolishi; diqqatning tarqoqligi; verbal xotiraning pastligi; nutqiy- mantiqiy tafakkurning rivojlanishini orqada qolishi; harakat sohasining rivojlanishini orqada qolishi; affektiv- iroda sohasining o'ziga xosligi. R.YE. Levina va uning laboratoriyasi hodimlari tomonidan (1969) nutqning to'liq rivojlanmaganligining namoyon bo'lishi davrlari ishlab chiqilgan. Har bir daraja nutqiy komponentlarni shakllanishini orqada qoldiruvchi birlamchi va ikkilamchi nuqsoning o'zaro munosabatda namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligini namoyon etuvchi uchta nutqiy rivojlanish darajasi farklanadi. Bola hayotining birinchi yilidagi har qanday nuqson eng avvalo, nutqiy orqada qolishda namoyon bo'ladi, keyin bolada muloqot bilan bog'liq qo'shimcha boshqa muammolar paydo bo'ladi.

Bolani odamlar qurshaydigan muhitdan (bolalar guruhlar, oila va hakoza) ajratib qo'yishga bolani psixik rivojlanishini orqada qoldiruvchi deprivatsion vaziyat sifatida qaraladi. Ayniqsa, bola nutqini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi emotsional deprivatsiya, bu bola tug'ilganidanoq, mehr-muhabbat, iltiqlikni his etmasligidir.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligida logopedik ishning vazifasi bola nutqining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda muloqot vasitalarini bosqichma- bosqich shakllantirish hisoblanadi. Ta'limning birinchi bosqichida bola deyarli gapirmaydi, bu davrda logopedik nutqni tushunishni rivojlantirishdan boshlanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida tashkil etilib, albatta nutqiy materialni ko'p marta takrorlanishi va nutqiy muloqotga ehtiyoj uyg'otishni ko'zda tutadi. Shu bilan bir vaqtda bolada tovushlarga taqlid qilish va amorf- so'zlar yordamida muloqot qilish shakllantiriladi.

Nutqni tushunish bo'yicha ishlar o'yin metodlari va tovushlarga , hayvonlar ovozlari taqlid qilish usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bolalar predmetlar va ularning harakatlarini so'zli nomlanishiga moslashtirishga o'rgatiladi, ularning passiq lug'ati predmetli vaziyatlarni, musiqa mashg'ulotlari, tasviriy faoliyat, ekskursiya, sayrlar va boshqalarni qo'llash orqali boyitiladi.

Xulosa qilib aytganda og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni kompleks reabilitatsiya qilishda bosh miya qobig'idagi lateralizatsiya faoliyatining to'laqonli emasligi bilan qo'shib keladigan nutq zonolari va assotsiotiv zonalarining rivojlanishining sustlashganligini aniqlanishi mumkin. Asosiy e'tiborni miyaning chap bosh yarim sharining nutq zonasida EEGda turg'un nutqning to'liq rivojlanmaganligi yoki sensor alaliyada epiletiiformali faollikning mavjudligiga qaratish kerak. Shunda boladagi nuqsonni ertaroq korreksiya qilish imkoni bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 M.Y.Ayupova. " Logopediya" 10.08.2007-yil 4. Raxmanova V.S. " Korreksion pedagogika va logopediya " 2007-yil
- 2 Islomova, O. (2022) Nutq buzilishlari psixoprofilaktikasida turli xil psixologik o'yinlarni tashkil etish.
- 3 Ayupova M.Y. Korreksion ishlar metodikasi ma'ruza matni

4 Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya. Jizzax.: “Ruhshona servis” 2021

5 Hamidova M.U. Maxsus pedagogika. Toshkent. 2020